Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

BOLALAR ADABIYOTIDA VERBAL VA VIZUAL ALLEGORIYANING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Sevara Ilhomjonovna Xudoyberganova*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ sevarakhudoyberganova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bolalar adabiyotidagi verbal va vizual allegoriyaning pragmalingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Allegorik matnlarning bolalar tafakkuri, axloqiy tarbiyasi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, verbal va vizual matnlarning semantik integratsiyasi hamda ularning didaktik funksiyasi "Kalila va Dimna" asari misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

bolalar adabiyoti, allegoriya, verbal matn, vizual matn, pragmalingvistika, multisemiotika, semantika, personifikatsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743587

Kirish

Bugungi kunda bolalar adabiyotini o'rganishda matn faqat lingvistik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki turli semiotik tizimlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanuvchi multisemiotik hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, rasm va matn uyg'unligiga asoslangan asarlarda axborot ikki kanal orqali uzatiladi. Natijada o'quvchi mazmunni nafaqat o'qish, balki tasviriy belgilarni idrok etish orqali ham anglaydi.

Allegoriya bolalar adabiyotida eng faol badiiy vositalardan biri bo'lib, murakkab axloqiy va ijtimoiy tushunchalarni bolalar yoshiga mos shaklda ifodalash imkonini beradi.

Verbal allegoriyada asosiy vosita so'z bo'lsa, vizual allegoriyada rang, shakl, kompozitsiya va tasviriy detallar muhim semantik yukni bajaradi. Shu sababli zamonaviy bolalar kitoblarida verbal va vizual matnlar yagona kommunikativ tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Natijalar va muhokama

Verbal allegoriyaning pragmalingvistik xususiyatlari

Allegoriya — abstrakt g'oya, axloqiy tushuncha yoki ijtimoiy hodisaning konkret obraz orqali ifodalanishidir. Bolalar adabiyotida allegoriya murakkab tushunchalarni sodda va qiziqarli shaklda yetkazish orqali bolalarning tasavvur va tafakkurini faollashtiradi, didaktik g'oyani bevosita emas, bilvosita singdiradi.

Bolalar uchun allegoriya ko'pincha hayvonlar, tabiat hodisalari yoki jonlantirilgan buyumlar orqali beriladi.

Verbal allegoriya — so'z orqali yaratilgan ramziy ifoda bo'lib, u konkret obrazlar yordamida abstrakt axloqiy, falsafiy va ijtimoiy g'oyalarni bilvosita ifodalashga xizmat qiladi. Bolalar adabiyotida verbal allegoriya murakkab hayotiy haqiqatlarni ochiq pand-nasihat shaklida emas, balki sodda syujet va tanish obrazlar orqali yetkazishi bilan ajralib turadi. Allegorik verbal matn bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda til jihatidan soddalashadi, mazmun jihatidan esa chuqurlashadi. Shu bois verbal allegoriya bolalar adabiyotida didaktik va estetik vazifani uyg'unlashtiruvchi asosiy poetik vositalardan biri hisoblanadi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan allegorik matnlarda sintaksis oddiy, jumlalar qisqa va ravon bo‘ladi. Biroq ushbu soddalik yuzaki emas, balki ko‘p qatlamli semantik mazmunni yashiradi. Masalan, Ezopning “Tulki va uzum” masalida tulki uzumga yetolmaydidi va dedi: ‘*Baribir nordon ekan’*.” Ushbu ikki jumla orqali inson ojizligi, o‘z muvaffaqiyatsizligini oqlash istagi, psixologik o‘zini himoyalash mexanizmi allegorik tarzda ifodalangan. Bola ushbu voqeani kulgili holat sifatida qabul qiladi, biroq allegoriya orqali unda xulq-atvorni baholash qobiliyati shakllanadi.

Verbal allegorik matnlarning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri jonlantirish

(personifikatsiya) bo’lib, hayvonlar, buyumlar insoniy sifatlarda tasvirlanadi. Bolalar adabiyotida personifikatsiya allegoriyaning eng faol shakli bo‘lib, u murakkab axloqiy va falsafiy g‘oyalarni bolaga mos, obrazli va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, Tulki obrazi jahon va o‘zbek bolalar adabiyotida ayyorlik, soxta donolik va hiyla ramzi sifatida barqaror semantik ma’noga ega. Ezopning “Tulki va qarg‘a” masalida shunday jumla keltiriladi: “Tulki qarg‘ani maqtab dedi:‘*Ovozing naqadar chiroyli, agar kuylasang, o‘rmon senga lol qolar’*.”. Ushbu parchada tulki ataylab yolg‘on iltifot qiladigan, suhbat qurish va manipulyatsiya qilish qobiliyatiga ega inson sifatida gavdalanadi, ayyorlik orqali maqsadiga erishadi. Bu personifikatsiya orqali bola so‘zning qudrati va aldovning xavfini anglaydi.

Personifikatsiya faqat hayvon obrazlari bilan cheklanmay, buyumlar va tabiat hodisalariga ham insoniy sifatlar yuklanadi.

“Quyosh kulib uyg‘otdi tongni,

Derazaga qarab ko‘z qisdi”

Bu yerda quyosh kuladi, ko‘z qisadi va ongli va hissiy mavjudot sifatida tasvirlanadi. Natijada bola tabiatni jonli va yaqin muhit sifatida qabul qiladi.

Jonlantirish orqali axloqiy g‘oyalar bevosita buyruq shaklida emas, ramziy tarzda beriladi. Bola obraz orqali xulq-atvorni baholaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy sifatlarni farqlashni o‘rganadi, ramziy va obrazli tafakkur rivojlanadi. Shu sababli personifikatsiya bolalar adabiyotida didaktik yukni estetik shaklda yetkazuvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Vizual allegoriyaning pragmatik imkoniyatlari

Vizual allegoriya esa — bu rasm, rang, kompozitsiya, shakl va detallar orqali ramziy ma’no yaratish jarayonidir. Agar verbal allegoriya so‘z orqali yashirin ma’noni ifodalasa, vizual allegoriya tasviriy vositalar orqali g‘oya va axloqiy xulosani bolaga yetkazadi. Bolalar kitoblarida rasm shunchaki bezak emas — u semantik qatlamdir. Ko‘pincha rasm matndan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Rang — vizual allegoriyaning eng kuchli vositalaridan biridir. Bolalar adabiyotida qizil — hayajon, xavf yoki jasorat, sariq — quvonch, iliqlik, yashil — hayot, poklik, ko‘k — sokinlik, orzu, qora/to‘q ranglar — xavf, noma’lumlik ma’nolarini ifodalaydi. Masalan, “Qizil qalpoqcha” ertagining ko‘plab illyustratsiyalarida qizil rang ikki ma’noni beradi: qahramonning beg‘uborligi va o‘rmon ichidagi yashirin xavf. Shu tarzda rang bir vaqtning o‘zida bir nechta semantik qatlamni yaratadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida ham bayram sahnalari yorqin ranglarda, salbiy qahramonlar esa sovuq yoki qoramtir fon bilan tasvirlanadi. Bu bola ongida yaxshilik va yomonlikni vizual ajratishga yordam beradi.

Vizual allegoriyada kompozitsiya — obrazlarning rasm ichida qanday joylashtirilganligi ham muhim ma’no anglatadi. Markazda joylashgan qahramon ijobiy kuch timsolini anglatsa, pastda yoki soyada tasvirlangan obraz xavf yoki salbiy kuchni ifodalaydi. Katta hajm qudrat, kichik hajm esa ojizlik yoki qo‘rquv belgisidir. Masalan, Andersen ertaklari illyustratsiyalarida qahramon yorug‘ fon ichida, salbiy obraz esa soyada beriladi. Yorug‘lik — ezgulik, soya — yovuzlik allegoriyasi sifatida xizmat qiladi. Bu vizual qarama-qarshilik bolada axloqiy mezonni shakllantiradi.

Shuningdek, vizual allegoriyada hayvonlar insoniy xususiyatlarda tasvirlanadi. Masalan, tulki — ayyorlik, sher — jasorat, quyon — qo‘rqoqlik, boyo‘g‘li — donolik timsolida tasvirlanadi.

Hayvonning tashqi ko‘rinishi ham ma’no beradi. Misol uchun, tulkining ko‘zlari tor va chaqqon — makr belgisi, sherning tik turishi — qudrat belgisi, quyonning egilgan holati esa — qo‘rquv ifodasini beradi. O‘zbek xalq ertaklari illyustratsiyalarida tulki ko‘pincha jilmayib, boshini yon tomonga egib tasvirlanadi — bu uning hiylakorligini vizual ravishda kuchaytiradi.

Vizual allegoriyada mayda detallar ham ma’no yuklaydi: sinib qolgan ko‘prik — xavf yoki sinov, kalit — imkoniyat yoki sir, bo‘ron — ichki kurash, yorug‘ yo‘l esa — najot ma’nolarini ulashadi. Masalan, kichik qahramon qorong‘i o‘rmonda yorug‘ yo‘lga qarab ketayotgan sahna — bu hayot yo‘lini topish allegoriyasidir.

”Kalila va Dimna” asari misolida tahlil

“Kalila va Dimna” asari to‘liq allegorik tizim asosida qurilgan bo‘lib, unda hayvon obrazlari orqali insoniy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar va axloqiy qarorlar ifodalanadi. Asarda verbal matn voqeani bayon qilsa, vizual matn (illyustratsiyalar) ushbu voqealarning ramziy-emotsional qatlamini ochib beradi. Bu asarda allegoriya bolaga mos soddalik va kattalarga xos falsafiy chuqurlikni birlashtiradi. Dimna — mansabparastlik, ayyorlik va manipulyativ tafakkurning allegoriyasi bo’lsa, Kalila — ehtiyotkorlik, aql va axloqiy muvozanat ramzidir.

Ularning dialoglari orqali yolg‘on va haqiqat, sadoqat va xiyonat, aql va nafs o‘rtasidagi qarama-qarshilik ochiladi. Bu yerda verbal allegoriya dialogik shaklda berilib, bolani faol o‘quvchi sifatida jarayonga tortadi. Asardagi sher obrazi hayvonlar podshohi bo’lib, kuch va hokimiyat timsoli, shu bilan birga, ishonuvchanlik va hissiyotga beriluvchanlik belgisi sifatida talqin qilinadi. Bu obraz orqali bolaga rahbarlik mas’uliyati va noto‘g‘ri qarorning oqibatlari allegorik tarzda yetkaziladi.

Asarning ko‘plab nashrlardagi illyustratsiyalarida quyidagi vizual allegoriyalar kuzatiladi: Sher markazda, yirik hajmda tasvirlanadi va hokimiyat hamda ustunlik ramzi hisoblanadi. Dimna yon tomonda, egilgan yoki pichirlab gapirayotgandek holatda va bu makkorlik allegoriyasidir. Kalila esa sokin ranglarda, masofali joylashtiriladi, bu donolik va betaraflik belgisini namoyish etadi. Ranglar tanlovi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, qizil va oltin ranglar — kuch va xavf, yashil va jigarrang — tabiiylik, muvozanatni ifodalaydi.

Ba’zi sahifalarda rasm nafaqat verbal matnda aytilmagan psixologik holatni ochib beradi, balki obrazlar orasidagi ierarxiyani ko‘rsatadi va bolada hissiy munosabatni shakllantiradi. Bu holat vizual matnning ikkinchi darajali emas, balki teng huquqli semantik komponent ekanini isbotlaydi.

“Kalila va Dimna”da verbal va vizual matnlar o‘rtasida semantik takror emas, semantik to‘ldiruv munosabati mavjud bo’lib, verbal matn voqeani tushuntiradi, vizual matn esa voqeani talqin qiladi. Natijada bola nafaqat o‘qiydi, balki ramziy fikrlashga o‘rganadi.

“Kalila va Dimna” asari misolida shuni aytish mumkinki verbal allegoriya axloqiy g‘oyaning mantiqiy asosini yaratsa, vizual allegoriya ushbu g‘oyaning hissiy-estetik ta’sirini kuchaytiradi. Rasm va matn uyg‘unligi bolalarda ko‘p qatlamli semantik idrokni shakllantiradi. Allegoriya bolalar adabiyotida didaktik yukni estetik shaklda yetkazishning eng samarali vositasidir.

Mazkur kuzatishlar verbal va vizual matnlarning integratsiyasi bolalarda ko‘p qatlamli semantik idrokni shakllantirishini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

- verbal allegoriya axloqiy g‘oyaning mantiqiy asosini yaratadi;
- vizual allegoriya mazkur g‘oyaning hissiy-estetik ta'sirini kuchaytiradi;
- verbal va vizual matnlarning uyg‘unligi pragmatik ta'sirni sezilarli darajada oshiradi;
- allegoriya bolalarda obrazli tafakkur, semantik interpretatsiya va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyotini pragmalingvistik nuqtai nazardan o‘rganishda verbal va vizual allegoriyani yagona multisemiotik tizim sifatida tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kress G., van Leeuwen T. *Reading Images: The Grammar of Visual Design*. London: Routledge, 2021.
2. Halliday M. A. K. *Language as Social Semiotic*. London: Edward Arnold, 1978.
3. Barthes R. *Image–Music–Text*. London: Fontana Press, 1977.
4. Peirce C. S. *Collected Papers of Charles Sanders Peirce*. Harvard University Press.

5. Ezop. *Masallar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.

Kalila va Dimna. Toshkent.